

BOBUR VA GEOGRAFIYA

Azimova Matlubaxon Abduraxmanovna

*O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Andijon
shahar akademik litseyi Geografiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada buyuk ajdodlarimizdan biri, shox va shoir, olim, davlat arbobi Zaxiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi, uning “Boburnoma” asari ko'rib chiqilgan bo'lib, Boburning geografiya sohasidagi qarashlari muhokama etilgan.

Kalit so'zlar: Bobur, “Boburnoma”, geografiya, geografik qiyofa, viloyat. Buyuk ajdodlarimizdan biri, shox va shoir, olim, davlat arbobi Zaxiriddin

Kirish

Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijon shahrida tug'ilgan. Uning otasi Umarshayx Mirzo Amir Temurning pannevarasi, Farg'ona viloyati hokimi bo'lgan. Zaxiriddinning onasi Qutlug'Nigorxonim Toshkent xonlarining avlodidandir. Toshkentlik Yunusxon Zaxiriddinning ona tarafidan buvasi ‘Ulug’ otasi’ bo'lgan. Mirzo Bobur yoshlidan jasur, dilovor, dovyurak bo'lgani uchun u kishini yo'lbars deb atash rasm bo'lgan. Bobur- Zaxiriddin Muhammadning ‘kunyasi’ ya'ni laqabi bo'lgan. To'ng'ich o'g'li Humoyun Mirzo tug'ilganida ‘Endi meni Bobur podshox deb atanglar’ deb buyurgan ekan. Umarshayx Mirzo 1494-yil vafot etgach 12 yashar Zaxiriddin taxtga o'tiradi. Shu kundan boshlab u tinch, osoyishta hayot kechirishni o'rniiga turli sarguzasht, jangler, taxt uchun kurashlarni boshdan kechira boshlaydi.

“Boburnoma” asari uning shox asari hisoblanadi. Uning vafotidan keyin o'g'li Humoyun podshox va nabirasi Akbarshox kitob tarzida bir necha nusxada ko'chirganlar. Bu asarda Bobur yoshlilik chog'larida va Hindistonda podshox bo'lganigacha bo'lgan davr ta'riflanadi. ‘Boburnoma’ni o'rta asrning shox asari ensiklopediyasi deb atash juda o'rinnlidir. ‘Boburnoma’ eski o'zbek tilida yozilgan. Biroq shunisi achinarlik, ‘Boburnoma’ning ko'p sahifalari yo'qolib ketib, hozir uchala asar bo'lib qolgan. Masalan: 910 hijriy yil voqealari, 915 dan 925 yilgacha, 927 yildan 932 yilgacha, 937 yil voqealari yo'q. Bobur 48 yil umr ko'rib, 36 yil davlat arbobi bo'lgan, ‘Boburnoma’da shu 36 yil mobaynidagi voqealar yozilgan. Afsuski bizga to'liq yetib kelmagan. ‘Boburnoma’ 1525-1530-yillarda yozib tugatilgan. ‘Boburnoma’ asarida Bobur har bir shaxarni, qishloqni hududi, chegarasi, uning iqlimi, tabiatni haqida batafsil uzoqlab yozgan. Demak bu asar asosan Geografiya, Tabiatshunoslik fanlariga oid ma'lumotlar to'plab brogan. Aytishlaricha u xotira daftari tutgan. Ushbu daftarga har bir voqeilikni yozib brogan. Hayotiy joylarini o'rgangan, tahlil qilgan. Nixoyat hayot xotiralari tarzida jamu jam qilgan.

“Boburnoma”ni o'qigan va o'rgangan kimsa uni tabiat va geografiyanı yaxshi bilgan kishi yozgan degan xulosaga keladi. Bobur jahongashta va olim, geografik va

tabiatshunos bo'lish, nodir asarlar yaratish uchun yoshligidan tayyorlanib brogan. Turkiy, forsiy, va arab tillarini adabiyotlari bilan tanishib brogan. Zahiriddin o'sha davrda O'zbekistonimizning geografik qiyofasini tasavvur eta olgan. U sayohatga chiqishni yaxshi ko'rgan, sayohatlari davomida o'lkaning tabiatini, iqlimini, chegaralarini o'rganib brogan. Shunday yozadi: 'Andijonning shimolidan bir 'qishloqda ekanda har ikki-uch kunda ovg'a otlanur edim. Ulug' changallarni o'rtab , bug'u-maral ovlar eduk. Ushoq changallariga chorga solib, qirg'ovulga qush solib kezlar edik' deb yozgan u.

Zahiriddin 15-16 yasharligida Farg'ona, Samarqand va Tooshkent oralig'ini bir necha marotaba kezib chiqqan. 19 yoshga to'lgan yili Xisor tarafidan toqqa ko'tarilib ,Fondaryo va Iskandar ko'l orqali Zarafshon vodiysiga o'tib ,samarqandga kelgan.ssaafarga otlanganda,,yer suv bolurmi kkishimlarni chorlab ``atrof tamonlarni surushtirib ma`lumot olgan. Bobur 21 yoshgacha o'lkamizning barcha shaxar va qishloqlarini ko`rga,yo`,ko`priklarini,dasht-tog`larini aylangan.chuqurlardan,daralardan o`tgan,vas ho`x soylarni kechgan. Ko`rgan shaxarlarini darvozalarini , xovuzlar va maqbaralarini ko`rsatib o`tgan. Bobuening qaxramon qilishda ,qalin qor ustida yurib xinduqush tog`laridan oshgani xam mardonavor safaridir.Uning podshox bo`laturib,qorni kurab g`or yasagani va shu g`orda bo`rondan saqlanib yotganini aytmaysizmi. U bu xarakati bilan o`zining nixoyatda kamtarin ,xalqini o`yaydigon podishoxligini nomoyon qilgan,chunki askarlari katta g`orga taklif qilishsa bormadi.Ular ne mashaqqatlar bilan yursayu men katta g`or ichida uqlab yotamanmi , deb o`zi uhun g`or yasagan. Bobur shunday yozadi,;"menxam xar tashvish, mashaqqat bo`lsa ko`rayin,xar nechuk el toqat qilib tursa turayin,, Boburning xindistonda vaqtidaxam 7 yashar dilbar qizchasi Gulbadan bedim va boshqa oila a`zolari bilan birgalashib Agra tevaragiga, daryo bo`ylariga uzoq sayirlarga chiqgani m`lum .U umrining deyarli 36 yilini shu tarzda goxo og`ir va qaltiz ,goxo roxat shijjatli safarlarda o`tkizgan va o`n minglab km yo`l bosgan, Farg`onadan Bangaloggacha brogan. Shunday qilib u chinakam sayyox va olim uchun zarur bo`lgan barcha fazilatlarni egallagan.

Muhokama va natijalar

Boburning sayoxat mashruti Boburning xayot yo`li xaqida yozish uchun uning sayoxat mashrutini o`rganish kerak. Lekin bu mushkul ish,,Boburnoma''ning talay qismi yo`qolib ketganligi sababli Boburning brogan va ko`rgan joylarini bila olmasak kerak.Busiz Boburning geografik merosi xaqidagi xulosalarimiz mukammal va aniq bo`la olmaydi. Umuman „Bobur”nomaga birmingtagacha geografik nommamlakat,shaxar, qishloq, qal`a ,ko`l, chashma, dasht, tog`, davon, dara, daryo, ko`prik, bog`, yaylov, o`tloq, va boshqa joylarning nomi tilga olingan.

Bundan tashqari Bobu uzoq-uzoq mamlakatlarning (Arabisto, Iroq, Eron, Azarbajyon, Rim, Tibet, Xitoy, Qoshg`ar) nomlari xam keltirilgan. Bobur Farg`ona vodiysidan oxirgi martta ketganida baland tog`lar (Olay va Qorategin) dan oshib Masga qishlog`idan o`tib ,Farim va obigari orqali xisor vodiysiga tushgan bo`lishi mumkin. Qirg`istonning Laylak rayonidaxam Bobur qishlog`I bor. Rivoyatga ko`ra askarlaridan biri to`dasi shu yerda qolib qishloq tuzganlar. Bobur Mascho va obburdan qishloqlariga kelib, katta toshlarga

o`yib xat yozdirgan va o`z qo`li bilan toshga xat yozgan. 1927-yilda eronshunos olim M.S. Andreev Tojikiston tog`larida ekispiditsiyada yurganida mahalliy xalqdan Boburning tosh taxti borligini eshitgan.

Obburda davonidan o`ratepga ketaverishda ovchi va yangai ariq qishloqlari o`rtasidagi Boburning darxaqiqat qishloqda turganligidan dalolat beradi. Mahalliy axoli shu yerda katta tegirmon toshiday keladigon bir yassi toshni xalixam „Taxti Bobur“ deb atashar ekan. 1941-yilda kalxo`zchilar sharox qudig`ini (bu quduq obburda qishlog`ininh chekasida) qazilayotganlarida bir metir chuqurlikdan katta bir toshni chiqarganlar. Toshning bir tamonida har xil yozuvlar jumladan Boburning xam yozuvi bor ekan. Tojik arxialogigi A.Muxtorov 1953-yilda shu yerga maxsus borib toshni tekshirdi va duyshanbega olib keldi, so`ngra undagi yozuvlarni matbuotga e`lon qildi. Toshning og`irligi -50kg, balandligi-51sm, uzunligi-45sm va qalinligi-16sm edi. Boburning xati 20*30sm yuzaga sig`dirgan xariflarining bo`yi 1-2sm bo`lib, toshga 1mm chuqurlikda o`yib yozilgan. Uchala baytxam Sa`diyning „Bo`ston“idan olingan. Toshga yozilgan bayti shu edi;

Shunidamki, Jamshidai Farruh sirishit
Ba sarchashmae barsange dam zadang
Barik chashma chun mo basedam zadang
Biraftong to chashin barxam zdang
Giraftem olam ba mardiyu zur,
Va lekin naburdem baxud bagur.

Bobur geografiyasining bazi qonuniyatlarini aytib o`tsam. Bobur xar bir xududini ma`lum bir tartibda tasvirlagan. Avvalo joynning geografik o`rnini ko`rsatgan, so`ngra iqlimi va qishloq xo`jaligi, o`simliklari, qazilma boyliklari, xayvonoti aholisini ta`riflagan. Shuningdek shaxarlar tapagirafiyasi aytilgan, shifobaxsh joylar tasvirlangan. Mamlakatdan chet elga chiqariladigon va keltiriladigon molar birma –bir sanab berilgan. Bunga Andijonning ta`rifi misol bo`ladi. Bobur asriga qiyosiy usul ko`p ishlatilgan. Joylar iqlimi, past-balandligi, axolisi va boshqa xususiyatlari jixatidan taqqoslangan. Bu esa xozirgi zamon geografiyasining eng yoqtirgan usulidir. Bobur xindiston bilan o`cta osiyo tabiatan bir-bitiga mutloqo o`xshamasligi takidlabo`tgan. Bobur iqlim va meteralogik hodisalar bilan juda qiziqgan, o`zi brogan xar bir mamlakatning qaysi iqlimga mansubligini aytgan. Bobur garizantal zo`nalikdan habardor bo`lgan. Bobur o`z zamondayoq xisor toglarining janubiy etaklarida yog`ingarchilik ko`p bo`lishini bilgan. Bobur farg`ona iqlimining qishki xolatiga nimaga bog`liqligini to`g`ri aytgan. Xavo oqimlarining g`arbdan sharqqa qarab esishi xam ma`lum bo`lgan. Hozirgi zamon fani xam buni tasdiqlagan. „Boburnoma“da geografiyaga oid ma`lumotlarxam ko`p. Daryoning chuqurligi muzlashish oqim tezligi necha tegirmon suv oqishi, suv manbalari asarda batafsil tasvirlangan.

Xulosa

vatandoshimiz buyuk ajdodimiz Zaxiriddin Muxammad Bobur xaqida qancha so`zlasak va yozsak ozlik qiladi. Bu buyuk shaxisning ilim-fanga qo`shgan xisasi

taqsinga loyiqdir. Men asrni o`qib va u xaqda yozilgan adabiyotlarniko`zdan kechirib shu hulosaga keldimki, „Boburnoma``asr keng qamrovli asr ekan. Buasr asosan geografiya ,tabiat shunoslik va geografiya fanining tarmoqlari ;gidrallogiya, metralogiya, geodeziya, geomarfalogiya kabi fanlarni yoritib bergen. Bobur nihoyatda sinchikovlik bian yondoshgan. U tasvirlagan har bir soxa va xar bir yangilik hozirgi zamon fanlarida o`z isbotini topgan. Biz avlodlar Bobur asrlarini xayotini yanaxam chuqurroq o`rganishimiz kerak ekan. Uning hayot yo`li va izlanishi , kashfiyotlarga boy bo`lgan. Geografiya faninig o`qitish metodikasida Bobur ma`lumotlaridan foydalanishimiz kerak ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. X Xasnov „Sayyox olimlar``va „Boburnoma``o`qituvchi 2008